



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**



**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY HOLATI VA ISTIQBOLLARI
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
MATERIALLARI TO'PLAMI**

Jizzax, 2024 – yil, 27-noyabr

6. Jo'rayev, S., & Abdurasulov, J. (2024). SUBJECT, TASKS AND CONTENT OF STUDYING THE BASICS OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION. Академические исследования в современной науке, 3(7), 149–153. извлечено от <https://www.econferences.ru/index.php/arims/article/view/13106>

7. Mirzarakhimova, G.I. DYNAMICS OF INTELLIGENCE OF LOW-SPEECH IN ADOLESCENTS // SCIENCE AND INNOVATION. - 2023. - Т. 2. - № 3. - С. 84-87. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7707440>

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILAR MUSTAQIL TA'LIMINI BAHS MUNOZARA USULIDA TASHKIL ETISH

Navruzov Ulugbek Bababekovich

CHDPU

ulugbeknavrozov1@gmail.com

tel:97-398-72-11

Hasanova Sarvinoz Sherzod qizi

BOT, 1-kurs, CHDPU

Annotatsiya: Hozirgi davrda o'quvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etish asosiy o'rinni tutadi, chunki ilmiy texnika rivojlanishi o'quvchilardan har tomonlama bilimli, malaka ko'nikmaga ega bo'lgan bitiruvchi o'quvchilarni talab etadi. Biz o'z amaliyotimizda guruhlar va individual shakldagi mustaqil ta'limdan foydalanish tamoyillari asosida o'quvchilarda fizika faniga bo'lgan qiziqishlarini yanada samarali bo'lishini ta'minlashimiz lozim.

Kalit so'zlar: O'quvchi, mustaqil ta'lim, dars mashg'uloti, opponent, bahs-munozara, o'quv adabiyoti.

Hozirgi davrda o'quvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etish asosiy o'rinni tutadi, chunki ilmiy texnika rivojlanishi o'quvchilardan har tomonlama bilimli, malaka ko'nikmaga ega bo'lgan bitiruvchi o'quvchilarni talab etadi. Biz o'z amaliyotimizda guruhlar va individual shakldagi mustaqil ta'limdan foydalanganda quyidagi tamoyillarga asoslanamiz:

- __ har bir o'quvchining imkoniyati, hoxishi va qiziqishi;
- __ o'quvchilarda mustaqil bilim izlashga undash;
- __ atrofimizda sodir bo'layotgan jarayonlarga dalillar manbai sifatida qarashga;
- __ izlanishlar natijalarini birgalikda muhokama qilish, diskussiyalar o'tkazishga;
- __ izlanishlar faoliyatini asta-sekin murakkablashtirishga;
- __ olgan materiallarini erkin fikrlovchi o'quvchilarni taqdirlash;

Mustaqil ishga psixologik tayyorgarligini biz ularning bilimini va fikrlash imkoniyatlarini sinab ko'rilayotgan birinchi darslardan boshlashimiz, chunki ularda o'z

kuchiga ishonch hosil bo'lishi kerak. Shu sababli guruhdagi o'quvchilarni kichik-kichik guruhlarga bo'lib, mavzu bahs-munozara usulida tahlil qilinadi.

Shu maqsadda maxsus "yutuq vaziyati" hosil qilinadi, ya'ni juftlashtirilgan savollar beriladi.

Masalan: 1. Pozitsion sanoq sistemasida qanday sonlar ustida ish olib boriladi.

2. O'nli sanoq sistemasi usrida amallar qanday bajariladi?

O'quvchilar o'quv yilining boshida ularning qiziqishiga qarab (nazariyotchilarga, amaliyotchilarga, texniklarga) ajratiladi. Vaqt o'tishi bilan o'quvchilarda qiziqish o'zgarishi mumkin. Shu sababli guruhlardagi o'quvchilar tarkibi o'zgarib turadi. Har guruhga topshiriq beriladi, bu topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchi darsga tayyorlanadi. Bunday darslarda yangi mavzuni tushuntirish suhbat tariqasida o'tadi va o'quvchilar axborot berishadi. Har guruhdan bir o'quvchi chiqish qiladi, qolganlari to'ldirishadi. Ba'zi hollarda umumlashtirilgan guruhlarini tashkil etish foydali bo'ladi, ya'ni nazariyotchilar, amaliyotchilar va fan tarixiga qiziquvchilardan iborat guruhlar tashkil etiladi. O'quvchilarning bilim saviyasidan kelib chiqqan holda, ularga beriladigan topshiriq mavzusi murakkab bo'lmasligi kerak.

Masalan: 1. Nomanfiy butun sonlar ustida ko'paytirish amali, chunki bu jarayondan kundalik hayotda har kuni foydalanamiz.

2. Mental arifmetikada hisob.

a) nazariyotchilar nazariyasini tushuntiradi;

b) amaliyotchilar amalda ko'rsatadi;

c) texniklar qo'llanilishi haqida ma'lumot beradi.

Dars mashg'uloti vaqtida o'quvchilar darslikdan foydalandi va o'rtoqlarining to'plagan ma'lumotlarini tinglashadi. Guruh sardori nazariyotchi darslikda berilgan materialni ilmiy ommabop adabiyotlardan olingan ma'lumotlar bilan to'ldirib chuqurlashtiriladi va dars mavzusini xulosalaydi. Olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida o'qituvchi tayyorlab qo'ygan masalalarni yechib, shu mavzuga doir savollarga javob berishadi. Ikkinchi guruh esa, javoblarni tahlil qilib, o'z fikrlarini bayon qiladi. Shunga o'xshash boshqa mavzuga doir darsga tayyorlanishda yangi kombinatsiyalashgan guruh tashkil qilinadi. O'quv yili davomida har bir o'quvchi shunday guruhda ishtirok etishi ko'zda tutilishi kerak. Bunday tashkil qilingan guruh faoliyatida ishtiroki o'quvchilarda bir-biriga nisbatan hurmatini, bir-biri oldidagi ma'suliyatni oshiradi va birgalashib, ya'ni guruh bo'lib ishlashni o'rganadi.

Bunday mustaqil ishning yana bir shakli bo'lib, o'quvchilarning mustaqil o'rganib kelgan mavzusi bo'yicha darsga tayyorlanish va uni o'tkazish bo'ladi. Bunday holatda o'quvchilarga ularning qiziqishiga qarab uy vazifasi beriladi. Nazariyotchilarga topshiriqlar shunday beriladiki, ularning axboroti mavzuni kema-ket yoritib borib mashg'ulot mavzusini to'liq qamrashi kerak. Nazariy topshiriqni bajaruvchi o'quvchiga bir-ikkita opponent birlashtiriladi, ularning vazifasi topshiriq mavzusidan chiqmagan holda bir necha qiziqarli

savollarni tanlab olish, bunday opponent o'quvchi sifatida tahlil qila oladigan, mustaqil fikrlay oladigan hamda amalda qo'llay oladigan o'quvchilar tanlanadi. Qolgan barcha o'quvchilar individual topshiriq sifatida kartochkalarga yozilgan masalalar olishadi.

Dars jarayonida ba'zi savollar umumiy muhokamaga qo'yiladi, bu savollarga uyida tayyorlanib kelgan o'quvchilar batafsil javob berishadi. Dars oxirida yakuniy xulosalar qilinib, baho qo'yiladi.

Masalan: **“Natural sonlar ustida arifmetik amallar”** mavzusini uyga vazifa qilib, bu mavzuni mustaqil tayyorlash.

1. Natural sonlarni tushuntiring.
2. Natural sonlarning amaliyotda qo'llanilishiga misollar keltiring.
3. Natural sonlarni qo'shish va ayirish amali.
4. Natural sonlarni ko'paytirish va bo'lish amali.

Mavzuni yoritish uchun nazariy topshiriq to'rtta qismdan iborat bo'ladi.

1. Natural sonlarning hosil qilinishi.
2. Natural sonlar ustida arifmetik amallarning bajarilish jarayonlari.
3. Mental arifmetikada amalarni abacus qurilmasida hisoblash .
4. Tarqatma kartochkalarda beriladigan savollar.

Bu mavzuga opponentlar savol tayyorlashi kerak. Qolgan o'quvchilar tarqatma kartochkalar olishadi va berilgan savollarga javob berishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T.,2008.
2. U.B.Navruzov THE ROLE OF THE TEACHER IN DEVELOPING STUDENTS' INTEREST IN LEARNING.
3. Sultanov T.M. Matematika o'qitish metodikasi. T-2024 yil. ZEBO-PRINT.
4. Internet resurslari: www.ziyonet.uz – electron kutubxonasi.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ТАЛАБАЛАРИГА ТАЪЛИМ БЕРИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДИКАСИ

Абдулахатова Манзура Акрамжон қизи
ЧДПУ 2 курс талабаси

Аннотация: Ушбу мақолада Олий таълим тизимида тахсил олаётган талабаларнинг интерфаол методлардан унумли фойдаланиш масалалари хусусида фикрлар ўз аксини топган.

Калит сўзлар: олий таълим, таълим тизими, замонавий билимлар, инсон манфаати, талабалар, таълим бериш, интерфаол усуллар, методика.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг бош мақсади инсон манфаатини ҳимоя қилиш, унинг қадри ва қаддини кўтаришдир. Бинобарин, бугунги

VOCABULARY TO TOURISM STUDENTS	
Mirzayev Avaz, Raxmonqulova Yulduz INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH	315-319
Toshmatov Alimardon Sotvoldiyevich ENHANCING STUDENT WRITING PROFICIENCY: STRATEGIES AND SOLUTIONS IN A DIGITAL EDUCATIONAL LANDSCAPE	320-325
Safina Farida Axatovna, Pardabayeva Sevin THE FRENCH LOAN WORDS IN GERMAN	325-327
Azizbek Mukhamedov, Mashrapova Mavluda Hasan kizi SHAPING THE FUTURE: HOW ARTIFICIAL INTELLIGENCE IS TRANSFORMING LEARNING ENVIRONMENTS	328-335
Yuldasheva Dilfuza Kodirovna TEACHING ENGLISH PROFESSIONAL VOCABULARY TO TOURISM STUDENTS	335-340
Umirezokov Sharofiddin SIGNIFICANCE OF INTEGRATING COMPUTERS IN EDUCATION	340-342
Сафарова Замира ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕКСТОВ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ	342-346
Mustaqova Madina Sherzod qizi, Usmonova Umida Baxtiyorovna CLASSIFICATION OF FUNCTIONAL STYLES AND THE ROLE OF JOURNALISTIC STYLE	346-350
Атамирзаева Эзола Бекмирзаевна СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ ФРАНЦУЗСКОМУ ЯЗЫКУ	350-356
Bakhramova Lobar Isabekovna MOST COMMON PROBLEMS IN TEACHING A TARGET LANGUAGE	356-359
Mamadaliev Abdumajit Mamasolievich ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LANGUAGE EDUCATION: ENHANCING FLUENCY AND CULTURAL UNDERSTANDING	360-366
Saidova Gulyora Abduhakimovna, Azimova Sevinch Nizomjon Qizi EMPOWERING LANGUAGE EDUCATORS: THE VITAL ROLE OF TECHNOLOGY IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES	366-370
Kholiyorov Bunyod Husanovich. EFFECTIVE ESP TEACHING THROUGH INFORMATION TECHNOLOGY	370-373
Boboqulova Mahliyo Alisher Qizi, Khudoyberdieva Oyjamol Muzaffarovna THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE (AI) IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES	373-377
Наркузиева Г. 3. РАБОТА НАД ВЫРАЗИТЕЛЬНОЙ РЕЧЬЮ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	378-381
Madiyarova Shoxzoda, Ubayda Yunusobna O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING MILLIY MODEL	381-385
O'ralova Umida Ravshanqul qizi, Ubayda Yunusovna.Fayziyeva INKLYUZIV TA'LIMNI XALQARO VA RESPUBLIKAMIZDAGI QONUNIY ASOSLARINING AHAMIYATI	385-389
Pardayeva Xumora, Ubayda Yunusovna Fayziyeva MAVZU: ALOHIDA EHTIYOJLI BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA JALB ETISHDA MAHALLANING RO'LI	389-392

Hakimova Ozoda Alisher qizi, Ubayda Yunusovna Fayziyeva RESPUBLIKAMIZDA KO'RISHDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALARNING JAMIYATGA INTEGRATSIYASINING TA'RIXIIY ASOSLARI	392-395
Fayzullaeva Dilafruz Axmadjon qizi, Ubayda Yunusovna Fayziyeva INKLYUZIV TA'LIMDA KO'RISHIDA MUAMMOLARI BO'LGAN O'QUVCHILARGA INDIVIDUAL YONDASHUV VA UNING AHAMIYATI.	395-398
Hamidova Umida, Ubayda Yunusovna Fayziyeva INKLUZIV TA'LIMDA MAXSUS PEDAGOG BÒLISHINIG ZARURIYATI.	398-400
Raxmatova Nargiza Abdinazarovna MAKTAB O'QUVCHILARIGA KURASH SPORTINI O'RGATISHNING NAZARIY VA AMALIY USULLARI	400-403
Navruzov Ulugbek Bababekovich, Hasanova Sarvinoz Sherzod qizi. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILAR MUSTAQIL TA'LIMINI BAHS MUNOZARA USULIDA TASHKIL ETISH	403-405
Абдулахатова Манзура Акрамжон қизи ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ТАЛАБАЛАРИГА ТАЪЛИМ БЕРИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДИКАСИ	405-408
Yusubjonova Sitora Botirjonovna Miraxmedova Shoxida Nusratilloevna KIBBERTERRORIZM HAQIDA TUSHUNCHA	408-410
Sevara Shaxzodovna Barnoqulova, Miraxmedova Shoxida Nusratilloevna TELEVIDENIYE-KO'NGILOCHAR SANOAT SIFATIDA	410-413
Raupova Mohinur Haydar qizi Sapayev Bakhtiyor DEEP LOOK TO THE HISTORY OF MATHEMATICS	413-416